




**SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**SURXONDARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI
2023- YIL YANVAR-APREL
(DASTLABKI MA'LUMOT)**



Tel.: 76-225-65-76

www.surxonstat.uz

Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar-aprel oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2340,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 91,8 % ni tashkil etdi.



B

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash




C

Ishlab chiqaradigan sanoat



D



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



E

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish


Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 16,3 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




yanvar-aprel

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	63,3	87,1	23,8
Neft, ming t.	28,4	25,2	-3,2



Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	9,9	9,3	-0,6
Chaqiq tosh, ming t.	22,6	0,0	-22,6

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2148,0 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,8 % ini tashkil etdi.


2022- yil yanvar-aprel

89,0 %

2023- yil yanvar-aprel

91,8 %


O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,6 % (0,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 22,3 % (18,0 %) va quyi texnologiyalisi – 68,6 % (70,4 %)ni tashkil etdi.






Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 6,3 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,6 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,5 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 50,6 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,2 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 1,3 % (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 202,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2023- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,7 ming tonna paxta tolasi (2022- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 74,6 % ga kamaygan), 2,0 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (27,8 % ga kamaygan), 0,8 ming tonna lint (65,1 % ga kamaygan), 16,3 ming tonna neft bitumi (78,4 % ga kamaygan) hamda ishlab chiqarilib, kam o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	6,3	4,7	-1,6
Paxta tiviti (lint), ming t.	6,0	0,8	-5,2
Neft bitumi, ming t.	3,8	16,3	12,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	36,5	17,9	-18,6
Saryog', t.	0,7	0,2	-0,5
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	0,9	1,3	-0,4

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 97,7 bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi esa, 115,6 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 11,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 64,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,2 % ga kopaygan va ishlab chiqarish hajmi 212,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,9 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 344,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 105,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 109,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 12,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 44,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 130,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 43,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 2,3 % ga ko'paygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1015,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 84,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 7,2 %, fizik hajm indeksi 116,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 168,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,2 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 173,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 8,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 123,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,8 % ni, fizik hajm indeksi 102,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 134,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 58,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 220,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 22,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 101,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,3 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 72,4 % ga kamayganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	66,3	32,8	-33,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	17,1	12,3	-4,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,8 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	1,0	3,0	2,0
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd. so'm</i>	8,5	9,8	1,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 24,9 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 3,0 mlrd. so'm shuningdek, 9,8 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 763,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 19,7% ni, uning jami sanoatdagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2022- yil
yanvar-aprel

41,7 %

2023- yil
yanvar-aprel

44,2 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022- yil
yanvar-aprel

58,3 %

2023- yil
yanvar-aprel

55,8 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,8 % (2022- yil yanvar-aprel oylarida 0,6 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumani 15,6 % ni, 15,2 % Denov tumaniga to'g'ri kelib Jarqo'rg'on 12,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (119,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Uzun (189,2 %), Denov (170,7 %) va Qiziriq (162,0 %) tumanlarida qayd etildi.